



BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI ILMIY AXBOROTI



Научный вестник Бухарского государственного университета
Scientific reports of Bukhara State University

1/2023

E-ISSN 2181-1466



9 772181 146004

ISSN 2181-6875



9 772181 687004



@buxdu_uz



@buxdu1



@buxdu1



www.buxdu.uz

Ismatullayeva I.I.	Hozirgi zamon tilshunosligida konseptni o'rganish metodlari, usullari va klassifikatsiyasi	135
Mehmonova Y. Ch.	Typology of collocations in combinatorial linguistics	139
Nuniyazova Sh. U., Djumabaeva J.Sh.	Comparative analysis in translation of English idioms and set expressions into Uzbek and Russian	144
Rajabov E.E.	O'zbek va ingliz tillaridagi "oila" tushunchasi konseptual maydonining lingvokognitiv tahlili	148
Ruziyeva N. X.	Zamonaviy tilshunoslikda matn va diskurs talqini	153
Xodjayeva D.I., Safarova M.H.	Ingliz tilini o'qitishda fonetik interferensiyaning o'rni	157
Samandarova G.Y.	Sodda gap ko'rinishidagi "hasharot" lug'aviy ma'no guruhlari asosida shakllangan paremlarning o'ziga xos xususiyatlari	161
Sayfullayev B.N.	Noqardosh tillarda o'zlashtirmalik (o'zbek va fransuz tillari misolida)	165
To'yboyeva Sh.R.	Fransuz tilida sodda gap tarkibiy qismlarini tarjima qilishda yuzaga keladigan muammolar yechimi	170
Абдурахманова М.У.	"Кўрлик" касаллигининг ўзбек, рус, инглиз тилларидаги лингвистик-семантик тадқиқи	174
Ахмедова М.Х.	Ўқув жараёнига тааллуқли ноадабий сўзларнинг психолингвистик хусусиятлари	180
Бахидова Ф.С.	Дискурса диний туризм ва зиёрат туризми терминларининг воқеланиши	183
Avezov S.S.	A Corpus-based approach to phraseology research	189
Kobilova A.B.	Ingliz va o'zbek tibbiy perifrazarining semantik mikromaydonidagi lingvokulturologik xosliklari	194
Bobokalonov R.R., Narzulaeva D.B.	Vocabulary of the Qur'an in the object of theolinguistics	203
Nazarova G.P.	Muloqotda gender farq muammolari xususida	210
Raxmatov A.P.	Plusquamperfekt zamon shaklining grammatik ma'nolari va uning kontekstual tahlili (nemis tili misolida)	215
Sayidova G.Y.	Alisher Navoiy nazmiy asarlaridagi o'xshatishlarning leksik-grammatik tabiati	221
Rasulov Z.I., Yuldasheva F.E.	Xushmuomalalikning nutq odobida ifodalanishi	232
Бозоров З.А.	Речевая культура в качестве неотъемлемой части языковой культуры личности	240
Мавлонова М.Д.	Инглизча ахборот технологиялари терминларининг ўзбек тилига ўзлаштириш жараёнида маъно торайиши ва кенгайиши ходисалари	245
Шарипова А.А.	Луғат корпусини яратиш технологияси	251
Hayotova D.Z.	Tushuncha va so'z munosabati	255
Mamatova D.M.	Xitoy tilida ta'm bildiruvchi sifatlar tahlili	259
Сафаров Ф.С.	Маънодошлик каторидаги сўзлар орасидаги маъновий муносабат ҳақида	266
Akhmedova D.B.	Semantic comments in an explanatory dictionary and their processing as a semantic extension	272
ADABIYOTSHUNOSLIK *** LITERARY CRITICISM *** ЛИТЕРАТУРОВЕДЕНИЕ		
Темирова Дж. Х.	Отражение национальной картины мира в русском и узбекском детском фольклоре	277
Насруллаев Э.Ж.	Алишер Навоий "Ҳикмат ва ибрат достони"нинг ғоявий таҳлили	284
Шарипова Л.Ф.,	Шекспир ва Рауф Парфи сонетларида бадиий тасвир	288

ZAMONAVIY TILSHUNOSLIKDA MATN VA DISKURS TALQINI

Ruziyeva Nilufar Xafizovna,

Buxoro davlat universiteti

Tarjimashunoslik va lingvodidaktika kafedrası o'qituvchisi

n.x.ruziyeva@buxdu.uz

Annotatsiya: Mazkur maqola zamonaviy tilshunoslikda diskurs tushunchasining matn tushunchasi bilan mushtarak va farqli tomonlarini dunyo tilshunoslarining qarashlari asosida yoritib berishga bag'ishlangan bo'lib, maqolada dunyo tilshunos olimlarining "diskurs" va "matn" tushunchalari haqidagi fikrlari batafsil yoritilgan. Tilshunoslarning izlanishlarini o'rganib, «diskurs» va «matn» tushunchalarini to'liq muqobillikka ega bo'lgan sinonim tushunchalar sifatida qarash unchalik ham ma'qul emas, degan xulosaga kelingan. Shuningdek, maqolada diskurs nutq va matn qiyoslangan, bu qiyoslash quyidagilarga imkon beradi: birinchidan, diskurs tushunchasining o'zini aniqlangan va uni unga yaqin, lekin aynan o'xshash bo'lmagan tushunchalardan farqlangan; ikkinchidan, diskursni sharhlashda asosida diskurs – nutq, diskurs – matn aloqalari yotadigan yondashuvlar ajratilgan; uchinchidan, diskursning asosiy belgi (xususiyat)lari aniqlangan.

Kalit so'zlar: diskurs, nutq, matn, lisoniy omillar, nolisoniy omillar, kompleksli kommunikativ voqea, so'zlovchi pozitsiyasi, informativlik, imperativlik, etiketlik.

Аннотация: Данная статья посвящена выяснению общего и различного аспектов понятия дискурса и понятия текста в современной лингвистике на основе взглядов мировых лингвистов. После изучения исследований лингвистов был сделан вывод, что не очень хорошо рассматривать понятия «дискурс» и «текст» как синонимичные понятия с полными альтернативами. Также в статье проводится сравнение дискурса с речью и текстом, такое сопоставление позволяет: во-первых, определить само понятие дискурса и отличить его от понятий, близких к нему, но не совсем сходных; во-вторых, в интерпретации дискурса выделяют подходы, основанные на дискурсивно-речевых, дискурсивно-текстовых отношениях; в-третьих, определяются главные действующие лица (характеристики) дискурса.

Ключевые слова: дискурс, речь, текст, лингвистические факторы, неязыковые факторы, сложное коммуникативное событие, речевая позиция, информативность, императивность, этикет

Abstract: This article is dedicated to clarifying the similarities and differences of the concept of discourse and the concept of text in modern linguistics based on the views of world linguists. After studying the researches of linguists, it was concluded that it is not very good to consider the concepts of "discourse" and "text" as synonymous concepts with complete alternatives. Also, the article compares discourse with speech and text, this comparison makes it possible to: firstly, define the concept of discourse itself and distinguish it from concepts that are close to it, but not exactly similar; secondly, the approaches based on discourse-speech, discourse-text relations are distinguished in interpreting the discourse; thirdly, the main characteristics of the discourse are defined.

Keywords: discourse, speech, text, linguistic factors, non-linguistic factors, complex communicative event, speaker's position, informativeness, imperativeness, etiquette

Kirish. Hozirgi tadqiqotlarda tilshunoslikning turli yo'nalishlari shaxs omili masalasiga o'z xususiyatidan kelib chiqib yondashmoqda. Matn talqini va shaxs omili masalasi matn yaratilishi va uning mazmuniy pertsepsiyasi muammolari bilan uzviy bog'liqdir. Bu masalani tadqiq etishda matn yaratuvchi shaxsni emas, uni idrok etuvchi shaxs-tinglovchi yoki o'quvchi omilini ham o'rganish muhimdir. Sh.Safarov so'zlari bilan aytganda: "Lison inson mavjudligini, uning ijtimoiy tajriba-faoliyatini ta'minlovchi hodisadir. Demak, lison tadqiqi bilan shug'ullanayotgan kimsa beixtiyor o'zini bilish bilan mashg'uldir, zero, lisoniy faoliyat hodisaning mohiyati-uning ijrochisi-shaxs va ushbu shaxsning ijtimoiy, shaxslararo munosabatga kirishishi bilan belgilanadi".[1]

Rus tilshunosi R.G.Galperinning fikriga ko'ra esa qog'ozga yozilib, hali o'qilmagan matn harakatsizdir matndir. Tilshunos olim N.A.Arutyunova "bir maqsadga yo'nalmagan ijtimoiy faoliyat turi, kishilarning o'zaro munosabatlarida va ular ongining mexanizmlari (kognitiv jarayonlar)da qatnashuvchi

nutq; voqelik bilan munosabatda olingan matn” bo’lgan diskurs muammosini hamda lisoniy tafakkur bajaruvchisi bo’lgan shaxs faoliyatini o’rganish lozimligini ta’kidlaydi. [2]

Asosiy qism. Zamonaviy tilshunoslikning barcha sohalarida bo’lganidek, matn tilshunosligida antroposentrik yondashuv shakllandi, natijada matn muallifi va uning adresati tadqiqotchilar e’tiborini tortdi. U.Nosirova o’zining “Poetik matnlarning pragmatik xususiyatlari” nomli ilmiy tadqiqotida matn lingvistikasining rivojlanish tarixini tahlil qiladi va matn lingvistikasining shaxs omili bilan bog’liq davrini “poetik matn lingvistikasi davri” sifatida alohida e’tirof etadi.[3] Xususan, U.Nosirova matn va uning yaratuvchisi hamda qabul qiluvchi o’rtasidagi munosabatlar masalalari “... R.O.Yakobson, N.N.Troshina, I.I.Kovtunova, Y.A.Atayeva, G.O.Vinokur, I.A.Beskrovnaya, Y.P.Kazarin, L.O.Butakova, V.A.Maslova, I.V.Bidina, A.L.Sharandin, J.N.Maslova, V.L.Lavruxina”lar tomonidan o’rganilganligini, o’zbek tilshunoslaridan esa, A.Mamajonov, M.Yo’ldoshevlarning ilmiy asarlari poetik matn lingvistikasi davrini boshlab berganligini e’tirof etadi. Shuningdek, matnga antroposentrik yondashuv uning “harakatsiz” turini ajratilishiga turtki bo’ldi. Tilshunoslikda “harakatsiz” matn atamasi uning yozma turiga nisbatan qo’llaniladi. Yozma matn bir shaxs tomonidan yaratiladi va u boshqa bir shaxs tomonidan o’qilmaguniga qadar u “harakatsiz” matn maqomini saqlab qoladi. O’quvchi matnni o’qish orqali nafaqat o’z maqsadi tomon harakatlanadi, balki u matn muallifining maqsadi, o’y-hayollari va kechinmalarini ham idrok etadi. Bu esa o’z o’rnida adresatda muallifining maqsadi, o’y-hayollari va kechinmalariga nisbatan javobni, subyektiv munosabatni, ya’ni modusni shakllanishiga turtki bo’ladi.[4]

Hayotda diskurs atamasiga ko’p bor duch kelinadi. Aksariyat insonlar uning asl mohiyatini anglashmaydi. Sohada diskursni turlicha talqin etishadi. Juda ko’p tilshunoslar diskursni (fransuzcha discourse, inglizcha discourse, lotincha discursus – harakat, uzluksiz almashinish, suhbat, so’zlashish) nutqiy faoliyat jarayoni hamda so’zlashish uslubi kabi mazmunlarda talqin etishadi. Jumladan, 1960-yillar boshlarida antropolog Dell Humes birinchi bor bo’lib diskurs tushunchasi va uning ahamiyati bilan shug’ullana boshlagan. U kuzatishlari asosida diskurs tushunchasini lingvistik atama sifatida o’tgan asrning o’rtalarida tilshunoslikka sohasiga olib kirgan. Dell Humes mulohazasiga ko’ra diskurs kishilarning og’zaki nutqda bir- birilari bilan muloqotga kirishishidir. Dell fikriga ko’ra diskurs bu faqatgina muloqotdir, ammo diskurs nafaqat muloqotni balki matn bilan ham o’zaro uyg’unlikda sodir bo’ladigan holat ekanligini unutmaslik kerak. Tilshunos olim A.Pardayev talqinicha, diskurs bu so’zlovchi va tinglovchining o’zaro fikr almashish, bir-biriga ta’sir ko’rsatish maqsadida lisoniy va nolisoniy vositalardan o’zlari eng samarali deb hisoblagan shakl va turda amaliy foydalanish jarayoni.

Diskurs bu – jarayon, insoniy faoliyat turi. U lisoniy va yuzlab nolisoniy omillarning mushtarak shaklda bir maqsad yo’lida voqelanishidir. Boshqa bir manbada diskurs lotincha “discursus” - muhokama so’zidan olingan bo’lib, hissiy, bevosita, intuitiv, ya’ni muhokama talab bilimdan farqli o’laroq, muhokama orqali vosita bilan hosil qilinadigan mantiqiy dalil - isbotli bilim demakdir. Soddaroq qilib aytganda, bu ta’rifda diskursning muhokama qilish, suhbat qilish ma’nosi ilgari suriladi. Tilshunos olim Zvegintsev g’arb tilshunosligida keng qo’llanilayotgan “diskurs” (inglizcha discourse; frantsuzcha discourse) tushunchasini dastlab lisonning gapdan yuqori turadigan sathi sifatida e’tirof etadi. Lisoniy faoliyatda “markazga intiluvchi kuch” ning ta’siri mavjudligini e’tirof etgan V.A.Zveginsev, diskursni “bulutlar orqasiga yashiringan lisoniy hudud” deb ta’riflagan va bu hodisani lingvistik metodlar vositasida tahlil qilish mumkinligiga shubha qilgan. Bu muammo xususida boshqa bir manbalarda “diskurs–nolisoniy omillar (pragmatik, ijtimoiy madaniy, ruhiy) bilan birgalikdagi matn; voqea kechishi nuqtai nazaridan qaralayotgan matn; maqsadli ijtimoiy harakat sifatida qaraladigan nutq” ekanligi haqidagi fikrlar ilgari suriladi. Ko’rinib turibdiki, mazkur ta’rifda diskurs hodisasi “matn” va “nutqiy faoliyat” tushunchalariga mushtarak holda yondosh hodisa sifatida talqin etilgan. Aytish mumkinki, diskurs bu muloqot va insonning bir-biri bilan fikr almashishi, kommunikativligi va informativligidir. Mavzuga aloqador olimlarning izlanishlarida diskurs va uning xususiyatlarining boshqacha ilmiy talqinlari mavjudligini ham kuzatish mumkin. Xususan, tilshunos T. A. Van Deyk diskurs atamasi va uning mohiyatini bir necha bosqichda tushunish, tahlil qilish lozimligini taklif etadi. Olimning e’tiroficha, keng ma’noda diskursga kompleksli kommunikativ voqea, tor ma’noda esa kommunikativ harakatning yozma yoki nutqiy verbal mahsuloti sifatida qarash lozim. Shuningdek, T.A. Van Deyk diskurs va matn o’rtasidagi farqni quyidagicha belgilaydi: diskurs – actyal aytilgan matn, ya’ni faol nutqiy harakat, matn esa til tizimiga yoki shakliu lisoniu bilimlarga tegishli fikrlarning mavhum grammatik tuzilishidir. Diskurs - aniq suhbat, aniqlik esa diskurs tushunchasi qo’llanadigan vaziyatga, matnga va ob’ektga ham birday taalluqlidir. Diskurs - suhbat turi. Deyk tomonidan berilgan ta’rif aniq va tushunarli bayon etilgan. O’zbek tilshunosligida diskurs maxsus tadqiqotlar tilshunos Sh.Safarov tomonidan amalga oshirilgan. Tilshunos matn va diskurs muammolari to’g’risida quyidagilarni qayd etadi: “agarda matn va diskursning har ikkalasi ham inson lisoniy faoliyatining natijasi bo’lsa, ularni faqatgina zo’hiriy – formal ko’rsatkichga asosan “og’zaki” va “yozma” sifatleri bilan farqlash imkoniga gumonim bor. Yuqoridagi

tilshunos olimlarning fikrlaridan xulosa qilib aytish mumkinki, “diskurs – bir paytning o’zida ham lisoniy faoliyat jarayoni, ham uning (faoliyatning) mahsulidir”. Shunday qilib, diskurs bu insonlarning o’zaro fikr almashinishi, muloqot qilishi, bir-biriga turli ma’lumotlarni yetkazishi, ma’lumotlarni yetkazish uchun turli vositalardan foydalanishi, ikkala suhbatdoshga ham tushunarli bo’lgan jarayon diskurs hisoblanadi. Diskurs dialogik hamda monologik shaklda uchrashi mumkin. Pragmatik talqinlarga ko’ra diskurs atamasining sakkiz xil ma’noda uchrashi qayd etiladi:

- 1) so’z muqobili;
- 2) frazalardan o’lchami bo’yicha ortadigan birlik;
- 3) nutq vaziyati hisobga olingan holda fikrning adresatga ta’siri;
- 4) suhbat;
- 5) nutqda so’zlovchi pozitsiyasi;
- 6) lisoniy birliklardan foydalanish;
- 7) fikrning ijtimoiy yoki mafkuraviy cheklangan turi;
- 8) matn hosil bo’lish shartlarini tadqiq etishga mo’ljallangan naza’riy qurilmalar.

Golland tilshunosi T. A. van Deyk diskursni bir nechta darajada ko’rib chiqishni taklif qiladi. U keng ma’noda diskursga kompleksli kommunikativ voqea, tor ma’noda esa kommunikativ harakatning yozma yoki nutqiy verbal mahsuloti sifatida qarash lozimligi haqida fikr bildiradi. Ta’kidlash kerakki, T.A. van Deyk diskurs va matn o’rtasidagi farqni shunday belgilaydi: diskurs - aktual aytilgan matn, ya’ni faol nutqiy harakat, matn esa til tizimiga yoki shakliy lisoniy bilimlarga tegishli fikrlarning mavhum grammatik tuzilishidir. Diskurs – aniq suhbat, aniqlik esa diskurs tushunchasi qo’llanadigan vaziyatga, matnga va obyektga ham birday taalluqlidir. Diskurs - suhbat turi. Diskurs janr kabidir. Nutqiy janr - tipik tuzilishi, lisoniy vositalardan foydalanishning o’ziga xosligi, aniq adresat, ma’lum kommunikativ maqsad va informativlik, imperativlik, etiketlik kabi jihatlari bilan ajralib turuvchi nutq turi hisoblanadi.

Diskursning ijtimoiy tabiati yangilikli diskurs, publitsistik diskurs, siyosiy diskurs, ilmiy diskurs, badiiy diskurs, baholovchi diskurs kabi yangi tushunchalarning yuzaga kelishiga imkon beradi. Talqin va izohlarning xilma-xilligi diskurs tushunchasining ko’p qirrali va keng qamrovli ekanligini ko’rsatadi. Insonning nutq orqali amalga oshadigan barcha ijtimoiy faoliyati diskursiv xarakterga ega. Nutqning ijtimoiy mohiyati matn bilan bog’langan bo’lib, uning o’ziga xos xususiyatlari matnning u yoki bu ko’rinishida namoyon bo’ladi. U aniq sotsiopragmatik matnda amalga oshiriladigan, murakkab maqsadga yo’naltirilgan nutqiy harakat sifatida bir tomondan, nutqning tarixiyli bilan, ikkinchi tomondan, ijtimoiyligi bilan, uchinchi tomondan, mafkuraviyligi bilan bog’liq. Ma’lum bir individual diskursning alohida tadqiqot obekti sifatida o’rganilishi nutqning lingvopragmatik tabiati to’g’risida mulohaza yuritishga imkon beradi. [5]

“Diskurs” atamasi ilm-fanga azaldan kirib kelgan va endi uning ishlatilishining qonuniyligini oqlashga hojat yo’qdek tuyuladi. Tadqiqotning bir-biridan tubdan farq qiladigan sohalarida foydalanish ushbu atamani turlicha talqin qilishga olib keldi. Shubhasiz, uni ishlatish chastotasi yangiliklarning jamoaviy taqlidi sifatida diskursning modasini keltirib chiqardi va ular tilshunoslikda azaldan ro’yxatdan o’tgan tushunchalar va atamalarining o’rnini bosa boshladilar. Shunga qaramay, shuni ta’kidlash kerakki, diskurs terminologiyada shakllangan joyni qonuniy ravishda egallab oldi, o’ziga xos ta’rifini oldi va eng muhumi, lingvistik tahlil imkoniyatlarini kengaytirishga imkon berdi. [6] Tilshunoslikda diskurs an’anaviy ravishda so’zlash, nutq, nutqiy faoliyat, matn, kommunikativ vaziyat, monolog, dialog kabi tushunchalar bilan o’zaro bog’liq bo’lib, bu bir tomondan, diskursning qaysi hodisalar turkumiga mansubligini tushunishga olib keladi, boshqa tomondan esa, ushbu hodisalarining o’ziga xosligi to’g’risida yolg’on tasavvur hosil qiladi.

Shunga qaramay, matn va diskurs bir – biriga bog’liqdir. Har qanday diskurs ham matndir. Ammo har bir matn ham diskurs emas. Masalan: yozilgan xat – o’quvchi (adresat) o’qib chiqmagungacha matn bo’ladi.

	Diskurs	Matn
1	Pragmatik kategoriya	Lingvistik kategoriya
2	Jarayon kategoriyasi	Natijaning kategoriyasi (statik)
3	Matnning aktuallashtirilgani	Mavhum konstruksiya
4	Matn+vaziyat (kontekst)	Vaziyat
5	Dialog	Monolog
6	Funksional, dinamik diskurs-jarayon	Struktur, statik mastn-mahsulot
7	Interaktivligi (dialogligi) matndan farqli	Diskurs paydo bo’ladigan xabar orqali amalga oshadi
8	Kommunikatorlarning jinsi, millati, ijtimoiy va boshqa xususiyatlari muhim ahamiyatga ega	Yaxlitlik va bog’liklik matnning asosiy tarkibiy xususiyatlari
9	Aloqaviy va aqliy jarayonni anglatadi	Ongning atributi
10	Kommunikativ-ijtimoiy sohaning atributi	

Quyidagilarni diskurs va matn o'rtasidagi farqli jihat sifatida aytib o'tsa bo'ladi:

- 1) diskurs pragmatik, matn faqat lingvistik kategoriya;
- 2) diskurs –bu jarayonning kategoriyasi, matn – natijaning kategoriyasi (u statik “turg'un”dir);
- 3) matn – bu mavhum konstruksiya, diskurs uni aktualashtirilgani.

Diskurs so'zlashning ijtimoiy ta'sirga ega bo'lgan joyda paydo bo'ladi; matn semantik yaxlitlik va grammatik to'liqlik xususiyatlariga ega bo'lgan mavhum aqliy konstruksiyaning bir turi. Diskurs kommunikativ – ijtimoiy sohaning atributidir, matn ongning atributidir. Shunday qilib, masalan, “Qonunni buzma!” jumlasini diskursning elementi sifatida ham, matn sifatida ham ko'rib chiqilishi mumkin. Diskurs tadqiqotchisi, bayonotda ijtimoiy xarakterga ega bo'lgan va aniq amaliy, vaziyatli amaliy ma'noga ega bo'lgan aniq bir harakatga ishora qilishiga e'tibor qaratadi. Obyekt bo'lgan joyda va unga nisbatan ma'lum harakatlarni amalga oshirish yoki ularni amalga oshirishdan tiyilish (o'tish yoki o'tmaslik) imkoniyati mavjud bo'lgan makonga mos keladi. Aks holda, ushbu bayonotdan foydalanish amaliy ma'nosini yo'qotadi. Matn tadqiqotchisi gapning ichki sintaktik va semantik aloqalari va uning kognitiv ta'siri bilan qiziqadi.

Matn va diskurs o'rtasidagi farq quyidagi mezonlarga muvofiq amalga oshirilishi mumkin (ularning hech biri mutlaq emas, lekin ularning kombinatsiyasi matn va diskurs o'rtasidagi farqlarni tushunish):

1. Yozma matn yoki og'zaki diskurs qatori bo'yicha;

2. Vaziyat tushunchasini jalb qilish orqali: diskurs = matn + vaziyat (kontekst); mos ravishda, matn = diskurs – vaziyat;

3. An'anaviy qarshilik dialog – monologga asoslangan: diskursning interaktivligi (dialoglilik) matndan farqli o'laroq takidlangan, odatda bitta muallifga tegishli;

4. Harakatlar konsepsiyasiga murojaat qilish: matndan farqli o'laroq, diskurs nafaqat tildan foydalanishning maxsus shaklini, balki ijtimoiy o'zaro ta'sirning (kommunikatorlarning jinsi, millati, ijtimoiy va boshqa xususiyatlari muhim ahamiyatga ega);

5. Va boshqa shunga o'xshash mezonlar:

Funksionallik, strukturlik, diskurs, jarayon, mahsulot, matn, dinamiklik, statiklik

Xulosa. Funksional, dinamik diskurs – jarayon kabi va struktur, statik matnni – mahsulot sifatida farqlanadi.

V.E.Chernyavskaya: diskurs matn tushunchasini takrorlamaydi, chunki diskurs aloqaviy va aqliy jarayonni anglatadi, matnning ma'lum bir rasmiy tarkibiy shakllanishiga olib keladi. J.Lich: matn – diskurs paydo bo'ladigan xabar orqali amalga oshadi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, diskursni barcha ekstralingvistik faktorlar bilan birgalikda, dunyo, fikrlar, qarashlar, baho, adreantning maqsadini o'z ichiga olgan matn yoki harakatdagi nutq, deb tushunsa bo'ladi.

ADABIYOTLAR:

1. Сафаров Ш. Прагматическая лингвистика. – Тошкент, 2008. – Б.С.
2. Лингвистический энциклопедический словарь. – М., 1990. – С. 136-137.
3. Носирова У. Поэтика матнларнинг прагматик хусусиятлари. Филология фанлари бўйича фалсафа доктори (phd) диссертацияси автореферати. Фаргона, 2021. 13--14 бет.
4. Z. Yigitalieva Analysis of text conceptsю International Conference on Developments in Education Uzbekistan, 2022.
5. Abduraxmonova N. Tilshunoslikda diskurs va matn tushunchalarining chegaralari va bir-biri bilan munosabatlari. Eurasian journal of social sciences, philosophy and culture. Innovative Academy Research Support Center Volume 2 Issue 6, June 2022.
6. Xafizovna, R. N. . (2022). Discourse Analysis of Politeness Strategies in Literary Work: Speech Acts and Politeness Strategies. Spanish Journal of Innovation and Integrity, 5, 123-133.
7. Zokirova N.S (2020) Translatology and the analysis of its linguistic mechanism. European Journal of Humanities and Educational Advancements, 1(4), 8-10.
8. Nafisa K. Cognition and Communication in the Light of the New Paradigm //European journal of innovation in nonformal education. – 2021. – T. 1. – №. 2. – С. 214-217.
9. Ruziyeva Nilufar Xafizovna, & Xolova Madina Boboqulovna. (2022). Politeness In Literary Works: An Overview. Eurasian Research Bulletin, 7, 200–206.
10. Zokirova Nargiza Savrievna. (2022). The Concept of Discourse as A Cognitive Phenomenon of Translation. Eurasian Research Bulletin, 7, 207–211.